

QAYERDA O'QISAM EKAN



AKADEMIK LITSEY, KASB-HUNAR KOLLEJI
VA MAKTAB BITIRUVCHILARI UCHUN
AXBOROTNOMA

TOSHKENT SHAHRI

- oliy ta'lim muassasalarining manzillari hamda mutaxassisliklari ro'yxati
- kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar haqida ma'lumotlar
- imkoniyat, maqsad va tanlov

УДК 378(575.1)(03)
377.5(575.1)(03)
ББК 74.200.52
Q17

Axborotlarni «O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi» hamda «KASB BIZNES» MChJ taqdim etgan


Tuzuvchi: A. Jalolov

Qayerda o'qisam ekan : Akad.litsey, kasb-hunar kolleji va maktab bitiruvchilari uchun axborotnoma / «Kasb biznes» MChJ. – T.: «Vektor-Press», 2011. – 88 b.

Mazkur axborotnomada O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan kasb ta'limi muassasalari (universitet, institut, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) haqida ma'lumotlar hamda kasb ta'limi muassasalarining nomi, ularning joylashgan manzillari, telefon raqamlari, (imkon qadar) elektron manzillari hamda ulardagi tayyorlov yo'nalishlari yoki kasbning nomlari keltirilgan.

Axborotnoma maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni bitirayotgan o'quvchilar hamda mazkur muassasalarni oldingi yillarda bitirgan yoshlar, ularning ota-onalari, shuningdek, ikkinchi mutaxassislik olish istagidagi fuqarolar uchun mo'ljal-langan.

УДК 378(575.1)(03)
377.5(575.1)(03)
ББК 74.200.52



Barcha huquqlar himoyalangan. Mualliflik huquqi egasining yozma ruxsatisiz mazkur kitobning to'liq yoki qisman chop qilinishi yoki ko'paytirilishi mumkin emas.

ISBN 978-9943-343-97-9

© «KASB BIZNES» MChJ, 2011-yil.
© «Vektor-Press» nashriyoti, 2011-yil.

MUNDARIJA

Bitiruvchilarga va abituriyentlarga.....	6
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.	
Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida.....	8
Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom.....	9
Oliy ta'lim muassasalarida yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi	19
O'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan ayrim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarini qabul qilish tartibi.....	22
Oliy ta'lim muassasalariga ko'zi ojiz abituriyentlarni qabul qilish tartibi	24
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori	
Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda o'qitish bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida.....	25
Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish va rasmiylashtirishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom.....	27
Oliy ta'lim muassasalari haqida axborotlar	32
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	32
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	32
O'zbekiston Milliy universiteti	32
Toshkent davlat texnika universiteti.....	33
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.....	34
Toshkent arxitektura-qurilish instituti.....	34
Toshkent avtomobil yo'llari instituti.....	35
Toshkent moliya instituti	35
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.....	36
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti	36
Toshkent kimyo-texnologiya instituti.....	36
Toshkent davlat pedagogika universiteti	37
Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti.....	37
Andijon davlat tillar pedagogika instituti.....	37
Andijon davlat universiteti.....	38
Buxoro davlat universiteti	38

oliy ta'lim muassasasi idoraviy bo'ysunishiga qarab vazirlik (idora) bilan kelishgan holda fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisligiga nomzodni o'z vaqtida tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etadi;

«Oliy hamshiralik ishi» yo'nalishi bo'yicha imtihon komissiyalarining raislari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

imtihonlar tasdiqlangan jadvalga qat'iy rioya etilgan holda o'tkaziladi; imtihonlarga ajratiladigan vaqt oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi;

abituriyentlarning yozma shaklda bajargan imtihon ishlarini tekshirish va baholash kirish yozma imtihonlarini tekshirish va baholash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Imtihonlar test sinovlari majmualaridagi fanning egallagan o'rniga qarab (tegishli ravishda 75,6 ball yoki 39,6 ball) belgilangan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizgacha bo'lgan oralig'ida, yagona ko'p balli tizim bo'yicha baholanadi.

Imtihonlarni baholash mezonlari har bir fanga ajratilgan umumiy ballar doirasida, abituriyentlarga qo'yilgan talablarning xususiyatlari hisobga olingan holda, oliy ta'lim muassasasining fan imtihon komissiyasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan fanlar bo'yicha yagona dastur va baholash mezonlarini tasdiqlaydi va tegishligiga qarab oliy ta'lim muassasalariga yetkazadi.

Agar imtihon ta'lim yo'nalishi doirasidagi qator mustaqil fanlar bo'yicha o'tkaziladigan bo'lsa, unda uni baholash uchun belgilangan ballarning umumiy miqdori, har bir fanning xususiyatlari hisobga olingan holda, differensial tartibda, uning tarkibidagi fanlarga bo'linadi.

Oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin abituriyentlar e'tiboriga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan imtihon olinadigan fanlar dasturini, ularni baholash mezonlarini, maslahatlar va imtihonlar jadvalini ma'lum qiladi. «Oliy hamshiralik ishi» yo'nalishi bo'yicha ushbu tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

7. Imtihonlar yakunlari ballar miqdori sifatida, tanlov tartibida imtihon varaqasiga va imtihon ro'yxatiga kiritiladi. Bu hujjatlarning har biri

fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi.

Imtihon qaydnomalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan o'z vaqtida Davlat test markaziga taqdim etiladi.

8. Jadval bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga kelmagan abiturientlar test sinovlariga qo'yilmaydi.

9. Oliy ta'lim muassasasida kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko'rib chiqish uchun appelyatsiya komissiyasi ishi tashkil etiladi.

O'QITISH TOJIK, QOZOQ, TURKMAN VA QIRG'IZ TILLARIDA OLIB BORILADIGAN AYRIM TA'LIM YO'NALISHLARI BO'YICHA KIRISH IMTIHONLARINI QABUL QILISH TARTIBI

1. Ayrim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida, Davlat komissiyasi bilan kelishgan holda, qabul ko'p balli tizim bo'yicha kasbiy imtihonlar va test sinovlari asosida amalga oshiriladi.

Bu ta'lim yo'nalishiga arizalar faqat umumiy o'rta ta'lim muassasasini yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasini ko'rsatilgan tillarda bitirgan abituriyentlardan qabul qilinadi.

2. Ko'p balli tizim bo'yicha kasbiy imtihonlar va test sinovlari asosida qabulni amalga oshiruvchi oliy ta'lim muassasalari ko'rsatilgan holda o'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan ta'lim yo'nalishlarining ro'yxatini, kasbiy imtihonlar va test sinovlari fanlarini Davlat komissiyasi belgilaydi.

3. Savollar mazmuni va imtihonlar topshiriqlari umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari dasturlariga qat'iy muvofiq bo'lishi lozim.

4. Abituriyentlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni qabul qilish uchun oliy ta'lim muassasasida belgilangan tartibda fanlar bo'yicha imtihon komissiyalari tashkil etiladi.

Oliy ta'lim muassasasi idoraviy bo'ysunishiga qarab vazirlik (idora) bilan kelishilgan holda fanlar bo'yicha imtihon komissiyalarining raisligiga nomzodlarni o'z vaqtida tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etadi.

Imtihonlar tasdiqlangan jadvalga qat'iy rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Imtihonlarga ajratiladigan vaqt oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi.

5. Imtihonlar test sinovlari majmualaridagi fanning egallagan o'rniga qarab (tegishli ravishda 111,6 ball, 75,6 ball yoki 39,6 ball) belgilangan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizgacha bo'lgan oralig'ida, yagona ko'p balli tizim bo'yicha baholanadi.

Imtihonlarni baholash mezonlari, har bir fanga ajratilgan umumiy ballar doirasida, oliy ta'lim muassasasining imtihon komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin, abituriyentlar e'tiboriga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan imtihon olinadigan fanlar dasturi, ularni baholash mezonlari, maslahatlar va imtihonlar jadvalini ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan fanlar bo'yicha yagona dastur va baholash mezonlarini tasdiqlaydi va tegishligiga qarab oliy ta'lim muassasalariga yetkazadi.

6. Imtihonlar yakunlari ballar miqdori sifatida, tanlov tartibida imtihon varaqasiga va imtihon ro'yxatiga kiritiladi. Bu hujjatlarning har biri fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolaniadi.

Imtihonlar natijalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi belgilangan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tasdiqlangan o'rinlar kvotasiga tanlov o'tkazadi.

7. Jadval bo'yicha imtihonga kelmagan abituriyentlar navbatdagi imtihonni topshirishga kiritilmaydi.

8. Oliy ta'lim muassasasida kasbiy imtihonlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (appelyatsiya) komissiyasining ishi tashkil etiladi.

9. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar adolatli va xolisona o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha shaxsiy mas'uliyat oliy ta'lim muassasasi rektori va qabul komissiyasi mas'ul kotibi zimmasiga yuklanadi.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA KO'ZI OJIZ ABITURIYENTLARNI QABUL QILISH TARTIBI

1. Ko'zi ojizlar toifasiga maxsus maktab-internatlar tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan yetuklik attestatiga ega bo'lgan abituriyentlar kiradi.

2. Ko'zi ojiz abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga kirish chog'larida kirish imtihonlarini ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari uchun belgilangan fanlar majmuasiga mos keluvchi ko'p balli yoki ularga keltirilgan besh balli baholash tizimi bo'yicha, an'anaviy uslubda topshiradilar.

3. Fanlar bo'yicha kirish imtihonlarini o'tkazish shakli (yozma yoki og'zaki) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

4. Ko'zi ojiz abituriyentlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish uchun oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan maxsus mas'ul xodim ajratiladi.

5. Oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi kirish imtihonlarini o'tkazish uchun fanlar bo'yicha komissiyalarni tashkil etadi.

6. Fan bo'yicha kirish imtihonlarining dasturlari umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari dasturlariga to'la muvofiq holda tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

7. Kirish imtihonlarini o'tkazuvchi komissiya tarkibiga ko'zi ojizlar yoki nogironlar jamiyatining vakili kiradi.

8. Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari ko'zi ojiz abituriyentlar uchun kirish imtihonlari fanlari bo'yicha maxsus tuzilgan jadvalga binoan maslahatlar tashkil etadilar.

9. Ko'rsatilgan abituriyentlar toifasi uchun kirish imtihonlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan 26-iyulga qadar o'tkaziladi.

10. Mazkur toifaga kiradigan abituriyentlar va kirish imtihonlari natijalari haqidagi ma'lumotlar 27-iyulga qadar Davlat komissiyasiga va Davlat test markaziga topshiriladi.

11. Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar Davlat komissiyasi bilan kelishilgan holda, oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi majlisining bayonnomasi va oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan tanlovsiz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING
Q A R O R I

UMUMTA'LIM MAKTEBLARINING 9-SINF BITIRUVCHILARINI
AKADEMIK LITSEYLAR VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA
O'QITISH BILAN QAMRAB OLISHNI TA'MINLASH BO'YICHA
NORMATIV-HUQUQIY BAZANI YANADA TAKOMILLASHTIRISH
TO'G'RIDA

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda umumta'lim makteblarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qitish bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash, iqtisodiyotning real tarmoqlarida talab mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli kadrlar tayyorlash darajasi va sifatini oshirishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Quyidagilar:

1. Umumta'lim makteblarining 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish ko'rsatkichlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;
Umumta'lim makteblarining 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish va rasmiylashtirishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar tasdiqlangan Nizomlarga qat'iy amal qilsinlar hamda ularda belgilangan talablarga belgilangan muddatlarda so'zsiz rioya qilinishini ta'minlasinlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:
manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda umumta'lim makteblarining 8–9-sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarini aniq maqsadni ko'zlab, samarali va muntazam tashkil etsin;

bir oy muddatda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis tizimini tanqidiy ko'rib chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Xalq ta'limi muassasalarida psixologik xizmat to'g'risidagi Nizom loyihasini kiritsin;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi bilan birgalikda umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'qitish bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash to'g'risidagi ma'lumotlarning xolisligini muntazam tekshirib borsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:
qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirishlar va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin;
idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiq-lashtirsin.
5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining
Bosh vaziri

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2010-yil 7-iyun,
109-son

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 9-SINF BITIRUVCHILARINI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARIGA
QABUL QILISH VA RASMIYLASHTIRISHNI TASHKIL ETISH
TARTIBI TO'G'RI SIDA
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini (keyingi o'rinlarda bitiruvchilar deb yuritiladi) o'zlari va ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan tanlangan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizom idoraviy tegishliligidan qat'i nazar, barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga tatbiq etiladi, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa.

**II. Bitiruvchilarning hujjatlarini akademik litseylar
va kasb-hunar kollejlari ga topshirish va qabul
qilishni tashkil etish**

3. Umumta'lim maktablarining direktorlari har yili 15-iyungacha bitiruv imtihonlari o'tkazilishini va 20-iyungacha bitiruvchilarning shahodatnomalari rasmiylashtirilishini ta'minlaydi.

4. Xalq ta'limi tizimida o'tkazilgan psixologik-pedagogik tashxis natijalariga muvofiq, bitiruvchilar va ularning ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tanlagan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari da o'qishni davom ettirish to'g'risidagi arizalari asosida umumta'lim maktablarida har yili 20-iyungacha bitiruvchilarning hujjatlari bilan birgalikda shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi shakllantiriladi.

Bitiruvchilarning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildini shakllantirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan birgalikda belgilanadi.

5. O'quvchilarni qabul qilish davrida har bir akademik litsey va kasb-hunar kollejida belgilangan tartibda maslahat markazlari tashkil etiladi.

6. Umumta'lim maktablarining direktorlari yoki direktor o'rinbosarlari har yili 30-iyungacha bitiruvchilarning hujjatlar yig'ma jildini bitiruvchilar va ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) ishtirokida tegishli akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning maslahat markazlariga topshiradi.

7. Hujjatlar yig'ma jildini bitiruvchilar yoki ularning ota-onalariga (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga) berib yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

8. Umumta'lim maktabi bitiruvchisining hujjatlari qabul qilinganligi to'g'risida umumta'lim maktabi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi direktorlari tomonidan to'rt nusxada topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Dalolatnomaning nusxalari Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linalarida va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalarida, umumta'lim maktablari hamda akademik litseylar yoki kasb-hunar kollejlari direktorlarida saqlanadi.

9. Bitiruvchilar akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarga tasdiqlangan qabul ko'rsatkichlari doirasida tushgan arizalar asosida teng shartlarda (yengillik va imtiyozlarsiz) qabul qilinadi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari direktorlari har yili 5-iyulga qadar umumta'lim maktablari direktorlaridan qabul qilingan bitiruvchilar hujjatlarining yig'ma jildlari asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tasdiqlangan qabul ko'rsatkichlariga muvofiq bitiruvchilarni qabul qilish bo'yicha buyruqlarni rasmiylashtiradi.

10. Madaniyat, san'at yo'nalishlari va boshqa ijodiy yo'nalishlar hamda sport bo'yicha akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari kadrlar tayyorlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi bilan kelishgan holda qabul jarayonida ijodiy imtihonlar o'tkazilishi mumkin.

11. O'rta maxsus, kasb-hunar muassasalariga bitiruvchilarning arizalari qabulning tasdiqlangan ko'rsatkichlaridan ortiq tushgan taqdirda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari direktorlari har yili 5-iyulgacha taalluqli o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasiga bu haqda ma'lumotlar kiritadi.

12. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari har yili 10-iyulgacha bitiruvchilar hujjatlari akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarga qabul qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarini umumlashtiradi.

III. Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitish bilan to'liq qamrab olishni ta'minlash

13. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi har yili 15-iyulgacha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari taqdim etgan ma'lumotlarni tahlil qiladi va O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasiga bitiruvchilarni qamrab olish imkoniyati va smena koeffitsiyentini hisobga olib qo'shimcha o'rin ajratish yoki ayrim hollarda bunday ta'lim muassasalarining har biri bo'yicha bitiruvchilar o'rtasida saralash test sinovlari o'tkazish bo'yicha takliflar kiritadi.

14. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan kiritilgan taklifni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

15. Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq, saralash test sinovlari muayyan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining qarori bilan qo'shimcha o'quvchi o'rinlari ajratilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda bitiruvchilarni qabul qilish tushgan arizalar asosida teng shartlarda amalga oshiriladi.

16. Saralash test sinovlari o'tkaziladigan fanlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadi.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida saralash test sinovlarini o'tkazish bo'yicha yo'riqnomani ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

18. Test sinovlari o'tkazilishi belgilangan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida saralash test sinovlarini o'tkazish bo'yicha 11 yoki 13 nafar a'zodan iborat komissiya tuziladi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb yuritiladi).

Komissiyaning tarkibiga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi direktori, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmasi va Xalq ta'limi vazirligi hududiy bo'linmalari, tuman (shahar) hokimliklaridan bittadan

vakil hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi vakili Komissiya raisi hisoblanadi.

Saralash test sinovlarini o'tkazish jarayonida umumta'lim maktablari o'qituvchilari hamda ota-onalardan 4–5 nafar vakil kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi.

Komissiya test sinovlarini adolat va oshkoralik tamoyillari asosida, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash choralarini ko'rgan holda o'tkazadi.

19. Umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiadalarida 1–5-o'rinlarni egallagan bitiruvchilar akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida» 2008-yil 13-oktyabrdagi 226-son qarori asosida qabul qilinadi.

20. Imkoniyatlari cheklangan bitiruvchilar O'zbekiston Respublikasining ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari ta'lim oluvchi imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun mutaxassisliklar va kasblar ro'yxatiga muvofiq Sog'liqni saqlash vazirligining tibbiy maslahat komissiyalari xulosalari va tavsiyalari, shuningdek Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalarining, tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining yo'llanmalari asosida qabul qilinadi.

21. Ushbu Nizomning 9, 10, 15 va 19-bandlarida belgilangan tartib asosida qamrab olinmagan bitiruvchilarning hujjatlari bitiruvchilar va ularning ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) roziligi bilan qamrab olish imkoniyati mavjud bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga o'tkaziladi.

22. Bitiruvchilarni qamrab olish imkoniyati mavjud bo'lgan boshqa o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga o'tkazishda akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji direktori tomonidan hujjatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi (4 nusxada) rasmiylashtiriladi. Dalolatnomaning nusxalari Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalarida, umumta'lim maktabi hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji direktorlarida saqlanadi.

Mazkur jarayon o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari va Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

23. Bitiruvchilarini qamrab olish imkoniyati mavjud bo'lgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining o'qitish mutaxassisliklari (yo'nalishlari) to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalariga o'z vaqtida yetkaziladi.

24. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari bitiruvchilarni akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga qamrab olganlik to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiradi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga yozma axborot beradi.

25. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Xalq ta'limi vazirligi bitiruvchilarning akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qitish bilan to'liq qamrab olinganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasiga hisobot beradi.

26. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda xalq ta'limi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari, shuningdek ta'lim muassasalari rahbarlari hujjatlar o'z vaqtida berilishi va bitiruvchilarning akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'qitish bilan to'liq qamrab olinishi uchun shaxsan javob beradi.

27. Bitiruvchilarni akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga qabul qilish, qoidaga ko'ra, har yili 1-avgustgacha yakunlanadi.

Hujjatlarni rasmiylashtirish, statistik hisobotlarni tayyorlash, tahlil o'tkazish, tashkiliy va nizomli masalalarni hal etish, qoidaga ko'ra, har yili 25-avgustgacha yakunlanadi.

28. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning hujjatlarini o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga qabul qilish va ularni o'qitish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

IV. Yakunlovchi qoida

29. Majburiy o'qishni davom ettirish uchun bitiruvchilarga to'sqinlik qilayotgan umumta'lim maktablari rahbarlari va o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari rahbarlari, shuningdek o'quvchilarning ota-onalari (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI HAQIDA AXBOROTLAR

T/r	OTMlari haqida axborot	Ta'lim muassasida mavjud mutaxassisliklar nomi
1	2	3
1	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Toshkent shahri, Buyuk Ipak Yo'li shoh ko'chasi, 54-uy. (8 371) 260-67-69 (8 371) 267-09-07 uwed@uwed.freenet.uz	• Xalqaro munosabatlar • Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar • Yurisprudensiya
2	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Toshkent shahri, S.Yusupov ko'chasi, 21 «a»-uy. (8 371) 275-77-95 yhi03@hotmail.com	• Filologiya (tillar bo'yicha) • Filologiya: ingliz tili • Filologiya: nemis tili • Filologiya: fransuz tili • Filologiya: ispan tili • Filologiya: rus tili • Filologiya: xitoy tili • Rus tili va adabiyotini o'qitish • Tarjima nazariyasi va amaliyoti • Xalqaro jurnalistika
3	O'zbekiston Milliy universiteti Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi. (8 371) 214-52-36 rector@nuuz.uzsci.net	• Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi • San'atshunoslik • Filologiya (tillar bo'yicha: o'zbek, ingliz, nemis, fransuz, rus, xitoy) • Rus tili va adabiyotini o'qitish • Tarix (mamlakatlarning va mintaqalar bo'yicha) • Falsafa • Arxeologiya • Siyosatshunoslik • Psixologiya • Sotsiologiya • Jurnalistika • Arxivshunoslik • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Biznesni boshqarish • Yurisprudensiya • Biologiya • Bioinformatika • Ixtiologiya • Fizika • Mexanika • Astronomiya • Kimyo • Geografiya • Gidrometeorologiya • Geologiya, foydali qazilmalar konlarini qidirish va bashorat qilish

1	2	3
		• Geofizika • Geokimyo, mineralogiya va petrografiya • Tabiiy birikmalar kimyosi • Matematika • Amaliy matematika va informatika • Axborot texnologiyalari • Geodeziya, kartografiya va kadastr (tarmoqlar bo'yicha) • Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi • Agrokimyo va agrotuproqshunoslik • Ekologiya va tabiatdan foydalanish
4	Toshkent davlat texnika universiteti Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy. (8 371) 246-46-00 tktu@uzpak.uz	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha: radiotexnika, neft va gaz ishi, elektr energetikasi, yer usti transport tizimlari) • Dizayn • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Neft va gaz konlari geologiyasi va razvedkasi • Issiqliq energetikasi • Elektr energetikasi (tarmoqlar bo'yicha) • Metallurgiya • Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi • Mashinasozlik texnologiyasi, jihozlari va mashinasozlik ishlab chiqarishni avtomatlashtirish • Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha) • Aviasozlik va raketa-kosmik texnikasi • Uchish apparatlari va dvigatellaridan texnik foydalanish • Energetika mashinasozligi • Yerusti transport tizimlari (transport turlari bo'yicha) • Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari • Konchilik elektr mexanikasi • Asbobsozlik • Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish (tarmoqlar bo'yicha) • Elektronika va mikroelektronika • Avtomatlashtirish va boshqaruv • Radiotexnika • Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi • Payvandlash ishlab chiqarish-mashinalari va texnologiyasi • Energiya tejamkorligi (tarmoqlar bo'yicha) • Nanotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha) • Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (tarmoqlar bo'yicha) • Biotibbiyot muhandisligi • Materiallarga badiiy ishlov berish texnologiyasi

1	2	3
		• Aeroportlarning radioelektron jihozlaridan foydalanish • Avtomobilsozlik va traktorsozlik • Noan'anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalari • Sovutish, kriogen texnikasi va mo'tadillash tizimlari mashinalari hamda agregatlari • Geodeziya, kartografiya va kadaslr (tarmoqlar bo'yicha) • Konchilik ishi • Qattiq foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi • Foydali qazilma konlarini qidirish va razvedka qilishning geofizik usullari • Neft va gaz geofizikasi • Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi • Neft-gaz sanoati mashina va jihozlari • Burg'ulash-razvedka ishlarining texnika va texnologiyalari • Geologiya-razvedka ishlarining texnikasi va texnologiyasi • Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish • Neft-gaz quvurlari, omborlari va neft-gazni qayta ishlash sanoati obyektlarini loyihalashtirish, qurish va ulardan foydalanish • Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish • Servis texnika va texnologiyasi (xizmat ko'rsatish sohaları bo'yicha) • Havodagi harakatni boshqarish • Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha) • Hayotiy faoliyat xavfsizligi
5	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Toshkent shahri, O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy. (8 371) 232-64-21 info@tsue.uz	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Biznesni boshqarish • Bojxona ishi • Bank ishi • Soliqlar va soliqqa tortish • Buxgalteriya hisobi va audit • Iqtisodiy statistika • Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi • Informatika va axborot texnologiyalari (tarmoqlar bo'yicha) • Servis (turizm va mehmonxona xo'jaligi)
6	Toshkent arxitektura-qurilish instituti	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: binolar va inshootlar qurilishi • Kasb ta'limi: muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi

1	2	3
	Toshkent shahri, Allsher Navoly ko'chasi, 13-uy. (8 371) 241-10-84 (8 371) 241-15-01	• Kasb ta'limi: qurilish materiallari va buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi • Kasb ta'limi: shahar qurilishi va xo'jaligi • Dizayn • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Geodeziya, kartografiya va kadastr (tarmoqlar bo'yicha) • Arxitektura • Binolar va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) • Shahar qurilishi va xo'jaligi • Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi (turlari bo'yicha) • Qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasi • Gidrotexnika qurilishi • Ko'chmas mulk ekspertizasi va uni boshqarish • Landshaftlar arxitekturas • Servis (uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'yicha)
7	Toshkent avtomobil yo'llari instituti Toshkent shahri, Movarounnahr ko'chasi, 20-uy. (8 371) 233-08-27 tayl_admin@mail.ru	• Kasb ta'limi • Kasb ta'limi: yer usti transport tizimlari • Kasb ta'limi: transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash • Menejment • Yerusti transport tizimlari (transport turlari bo'yicha) • Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash • Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari • Ko'tarish-tashish, yo'l-qurilish mashinalaridan foydalanish va ta'mirlash • Avtomobil yo'llari va aerodromlar • Transport inshootlaridan foydalanish • Servis (transport turlari bo'yicha) • Tashishni tashkil etish va transport logistikasi • Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha)
8	Toshkent moliya instituti Toshkent shahri, X. Asomov ko'chasi, 7-uy. (8 371) 234-53-34 tifi@tifi.uz	• Kasb ta'limi • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Biznesni boshqarish • Moliya • Bank ishi • Soliqlar va soliqqa tortish • Byudjet hisobi va nazorat • Buxgalteriya hisobi va audit • Investitsiyalarni moliyalashtirish • Sug'urta ishi • Moliya injiniringi • Bozorlardagi faoliyat va operatsiyalar • G'aznachilik ishi

1	2	3
9	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti Toshkent shahri, Shohjahon ko'chasi, 5-uy. (8 371) 253-31-35 tit@buzton.com	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: to'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi • Kasb ta'limi: yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi • Dizayn • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Buxgalteriya hisobi va audit • Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha) • Avtomatlashtirish va boshqaruv • To'qimachilik, yengil va qog'oz sanoati buyumlari kimyoviy texnologiyasi • Matbaachilik • To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi • Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi • Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi • Korxonalar servisi (korxonalar turlari bo'yicha)
10	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Toshkent shahri, Lohutiy ko'chasi, 25-uy. (8 371) 233-34-24 lashgiv@mail.tsp.uz	• Filologiya (tillar bo'yicha) • Sharq filologiyasi (arab, fors, turk, uyg'ur, dariy, pushtu) • Sharq filologiyasi (yapon, xitoy, koreys, vetnam, hind, urdu, indonez, malay) • Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) • Falsafa • Dinshunoslik • Sharq mumtoz filologiyasi • Siyosatshunoslik • Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik • Koreyashunoslik • Xitoyshunoslik
11	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 23-uy. (8 371) 244-79-17 tkti@tkti.uz	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Elektrokimyo • Kompozitsion va kukunli materiallar, qoplamalar • Tabiiy energiya tashuvchilar va uglerodli materiallarni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi • Avtomatlashtirish va boshqaruv • Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha) • Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi • Yog'ochsozlik sanoati texnologiyasi, mashinalari va jihozlari • Biotexnologiya • Mahsulot sifati menejmenti (mahsulot turlari bo'yicha) • Kimyo sanoati qurilishi materiallari, korxonalari mashinalari va agregatlari • Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha) • Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha)

1	2	3
12	Toshkent davlat pedagogika universiteti Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. (8371) 215-54-18 nfizmat@narod.ru	• Matematika va informatika • Fizika va astronomiya • Kimyo va ekologiya • Biologiya va inson hayotiy faoliyati muhofazasi • Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari • Tarix • Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi • Pedagogika va psixologiya • Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: mashinasozlik • Kasb ta'limi: amaliy san'at • Kasb ta'limi: agronomiya • Kasb ta'limi: servis • Musiqa ta'limi • O'zbek tili va adabiyoti • Chaqiriqqacha harbiy ta'lim • Ona tili va adabiyoti (tillar bo'yicha) • Ona tili va adabiyoti; rus tili va adabiyoti • Ona tili va adabiyoti: qozoq tili va adabiyoti • Ona tili va adabiyoti: koreys tili va adabiyoti • Xorijiy til (tillar bo'yicha) • Xorijiy tillar va adabiyoti: ingliz tili • Xorijiy tillar va adabiyoti: nemis tili • Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi • Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish • Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti • Defektologiya • Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat • Mehnat ta'limi
13	Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 56-uy. (8 374) 222-16-30 max@online.ru	• Kasb ta'limi: ijtimoiy-iqtisodiy soha • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Biznesni boshqarish • Moliya • Buxgalleriya hisobi va audit • G'aznachilik ishi • Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha) • Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash (transport turlari bo'yicha) • Avtomobilsozlik va traktorsozlik • To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi • Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi
14	Andijon davlat tillar pedagogika instituti Andijon shahri, Bobur shoh ko'chasi, 5-uy. (8 374) 224-75-15 adpi@uzpac.uz	• Ona tili va adabiyoti; rus tili va adabiyoti • Xorijiy til (tillar bo'yicha) • Xorijiy tillar va adabiyoti: ingliz tili • Xorijiy tillar va adabiyoti: nemis tili • Xorijiy tillar va adabiyoti: fransuz tili

1	2	3
15	Andijon davlat universiteti Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. (8 374) 222-31-91 asu2001@rambler.ru	• Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi • Pedagogika va psixologiya • Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Musiqa ta'limi • Ona tili va adabiyoti: qirg'iz tili • Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi • Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish • Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti • Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat • Mehnat ta'limi • Filologiya: o'zbek tili • Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) • Biologiya • Fizika • Kimyo • Geografiya • Matematika • Ekologiya va tabiatdan foydalanish
16	Buxoro davlat universiteti Buxoro shahri, Alisher Navoiy shoh ko'chasi, 1-uy. (8 365) 223-01-70 buksu01@online.ru	• Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi • Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: ijtimoiy-iqtisodiy soha • Kasb ta'limi: amaliy san'at • Kasb ta'limi: agronomiya • Kasb ta'limi: qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish • Musiqa ta'limi • Chaqiriqqacha harbiy ta'lim • Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi • Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish • Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti • Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat • Mehnat ta'limi • Filologiya (tillar bo'yicha) • Filologiya: o'zbek tili • Filologiya: ingliz tili • Filologiya: nemis tili • Filologiya: fransuz tili • Filologiya: rus tili • Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) • Psixologiya • Sotsiologiya • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Biologiya • Fizika • Kimyo • Geografiya • Matematika • Amaliy matematika va informatika

1	2	3
		• Agrokimyo va agrotuproqshunoslik • Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha) • Yer tuzish va yer kadastri • Suv xo'jaligi va melioratsiya • Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash • Servis (turizm va mehmonxona xo'jaligi) • Ekologiya va tabiatdan foydalanish
17	Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. (8 365) 223-78-84 btipmon@bukhara.uzsc. net	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: ijtimoiy-iqtisodiy soha • Kasb ta'limi: texnik soha • Kasb ta'limi: Oziq-ovqat va kimyoviy texnologiya • Kasb ta'limi: servis • Kasb ta'limi: Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (tarmoqlar bo'yicha) • Kasb ta'limi: Dizayn (turlari bo'yicha) • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Elektr energetikasi (tarmoqlar bo'yicha) • Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha) • To'qimachilik, yengil va qog'oz sanoati buyumlari kimyoviy texnologiyasi • Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi • Neft-gaz sanoati mashina va jihozlari • Oziq-ovqat sanoati mashina va jihozlari • Neft va gaz konlari geologiyasi va razvedkasi • Burg'ulash-razvedka ishlarining texnika va texnologiyalari • Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish • To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi • Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi • Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha) • Arxitektura • Binolar va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha)
18	Guliston davlat universiteti Guliston shahri, 4-mavze. (8 367) 225-36-06 gdu@intal.uz	• Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi • Musiqa ta'limi • Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi • Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish • Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat • Mehnat ta'limi • Filologiya (tillar bo'yicha) • Filologiya: o'zbek tili • Filologiya: qozoq tili • Filologiya: ingliz tili • Filologiya: rus tili • Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti	39
Guliston davlat universiteti.....	39
Jizzax politexnika instituti	40
Qoraqalpoq davlat universiteti.....	40
Qarshi davlat universiteti	41
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti	42
Namangan davlat universiteti	42
Namangan muhandislik-pedagogika instituti	43
Namangan muhandislik-iqtisodiyot instituti	44
Samarqand davlat universiteti	44
Samarqand davlat chet tillar instituti	45
Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti.....	45
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.....	45
Termiz davlat universiteti	46
Farg'ona davlat universiteti.....	46
Farg'ona politexnika instituti	47
Urganch davlat universiteti	48
Navoiy davlat pedagogika instituti	48
Nukus davlat pedagogika instituti.....	49
Jizzax davlat pedagogika instituti.....	49
Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti	50
Qo'qon davlat pedagogika instituti	50
Toshkent tibbiyot akademiyasi.....	50
Toshkent tibbiyot pediatriya instituti	51
Toshkent farmatsevtika instituti	51
Andijon davlat tibbiyot instituti	51
Buxoro davlat tibbiyot instituti.....	51
Samarqand tibbiyot instituti	51
Toshkent davlat madaniyat instituti	51
O'zbekiston davlat konservatoriyasi	52
Toshkent davlat san'at instituti.....	52
Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi	53
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti	53
Milliy rassomlik va dizayn instituti	54
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	54
Toshkent davlat yuridik instituti.....	55
Toshkent temir yo'l transporti muhandislari instituti	55
Navoiy davlat konchilik instituti.....	56
Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti.....	56
Toshkent davlat agrar universiteti.....	57
Andijon qishloq xo'jaligi instituti.....	58
Samarqand qishloq xo'jaligi instituti	58
Toshkent Islom universiteti	58

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar haqida ma'lumotlar	59
Mirobod tumani	59
Chilonzor tumani.....	61
Mirzo Ulug'bek tumani.....	64
Shayxontohur tumani.....	67
Yunusobod tumani.....	70
Yakkasaroy tumani	72
Sergeli tumani.....	74
Olmazor tumani	76
Xamza tumani.....	79
Uchtepa tumani.....	81
Bektemir tumani.....	83
 Asosiy qisqartmalar	 84
 Bitiruvchilar va abituriyentlarga yana bir bor	 84

1	2	3
		• Biologiya • Fizika • Kimyo • Matematika • Amaliy matematika va informatika • Agrokimyo va agrotuproqshunoslik • Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni dastlabki qayta ishlash texnologiyasi • Biogeokimyo va tuproqni eroziyadan himoyalash
19	Jizzax politexnika instituti Jizzax shahri, Xalqlar do'stligi shoh ko'chasi. (8 372) 226-46-05 jizpi@intal.ru	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi • Kasb ta'limi: qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish • Kasb ta'limi: transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash • Kasb ta'limi: informatika va axborot texnologiyalari • Kasb ta'limi: ijtimoiy-iqtisodiy soha • Kasb ta'limi: kimyoviy texnologiya • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Elektr energetikasi (tarmoqlar bo'yicha) • Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash (transport turlari bo'yicha) • Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha) • Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi • Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha) • Binolar va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) • Shahar qurilishi va xo'jaligi • Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi • Transport inshootlaridan foydalanish • Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish • Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish • Ekologiya va tabiatdan foydalanish
20	Qoraqalpoq davlat universiteti Nukus shahri, Universitet ko'chasi, 1-uy. (8 361) 223-60-47 qmur@online.ru	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Musiqa ta'limi • Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi • Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat • Filologiya (tillar bo'yicha) • Filologiya: o'zbek tili • Filologiya: qoraqalpoq tili • Filologiya: qozoq tili • Filologiya: turkman tili • Filologiya: ingliz tili • Filologiya: nemis tili • Filologiya: rus tili • Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) • Falsafa • Jurnalistika • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

1	2	3
		• Biznesni boshqarish • Moliya • Buxgalteriya hisobi va audit • G'aznachilik ishi • Yurisprudensiya • Biologiya • Fizika • Kimyo • Geografiya • Matematika • Amaliy matematika va informatika • Elektr energetikasi (tarmoqlar bo'yicha) • Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha) • Neft va neft-gazni qayta ishlash texnologiyasi • To'qimachilik sanoati mahsulotlari texnologiyasi va konstruksiyasi • Arxitektura • Binolar va inshootlar qurilishi (turlari bo'yicha) • Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi • Avtomobil yo'llari va aerodromlar • Yer tuzish va yer kadastr • Biogeokimyo va tuproqni eroziyadan himoyalash • Servis (ekologik servis) • Ekologiya va tabiatdan foydalanish
21	Qarshi davlat universiteti Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. (8 375) 224-13-95 kardu@uzpak.uz	• Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari • Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi • Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash • Kasb ta'limi: yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi • Kasb ta'limi: materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi • Kasb ta'limi: issiqliq energetikasi • Musiqa ta'limi • Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi • Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish • Maktabgacha ta'lim va bolalar sporti • Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat • Mehnat ta'limi • Filologiya (tillar bo'yicha) • Filologiya: o'zbek tili • Filologiya: ingliz tili • Filologiya: nemis tili • Filologiya: fransuz tili • Filologiya: rus tili • Rus tili va adabiyotini o'qitish • Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) • Psixologiya

1	2	3
		• Biologiya • Fizika • Astronomiya • Kimyo • Geografiya • Matematika • Amaliy matematika va informatika • Agrokimyo va agroluproqshunoslik
22	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 223-uy. (8 375) 221-09-23 keei@uzpak.uz	• Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish • Kasb ta'limi: elektr energetikasi • Kasb ta'limi: ijtimoiy-iqtisodiy soha • Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) • Moliya • Buxgalteriya hisobi va audit • G'aznachilik ishi • Neft va gaz geologiyasi • Issiqliq energetikasi • Elektr energetikasi (tarmoqlar bo'yicha) • Transport vositalarini ishlatish va ta'mirlash (transport turlari bo'yicha) • Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha) • Kimyoviy texnologiya (neorganik moddalar texnologiyasi) • Tabiiy energiya tashuvchilar va uglerodli materiallarni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi • Neft-gaz sanoati mashina va jihozlari • Konchilik ishi • Neft va gaz konlari geologiyasi va razvedkasi • Burg'ulash-razvedka ishlarining texnika va texnologiyalari • Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish • Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulotlar turlari bo'yicha) • Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish • Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularni dastlabki qayta ishlash texnologiyasi • Yer tuzish va yer kadastri • Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish • Servis texnika va texnologiyasi (xizmat ko'rsatish sohalar bo'yicha) • Atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar bo'yicha)
23	Namangan davlat universiteti Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. (8 369) 226-55-01 namdu@uzpac.uz	• Matematika va informatika • Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi • Pedagogika va psixologiya • Kasb ta'limi (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha) • Kasb ta'limi: servis • Kasb ta'limi: ijtimoiy-iqtisodiy soha

1	2	3
49	2-Respublika tibbiyot kasb-hunar kolleji Shayxontohur tumani, Turkqo'rg'on ko'chasi, 9-uy, www.2-tibbiyot.USSPO.uz, 2-RTKtibbiyot@mail.ru, 226-70-66	• Tibbiy laborant • Tibbiy profilaktika ishi feldsheri • Farmatsevt assistenti • Tibbiyot hamshirasi
50	O'quv davolash kompleksi tibbiyot kasb-hunar kolleji Shayxontohur tumani, Oqil Sharofutdinov ko'chasi, 1-berk ko'chasi, 10-uy, www.shk.tguspo.uz, odk_tk@mail.ru, faks: 243-11-38, 243-11-37	• Tibbiyot hamshirasi • Farmatsevt assistenti

1	2	3
51	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti qoshidagi Shayxontohur akademik litseyi Shayxontohur tumani, Zulfiyaxonim ko'chasi, 242-uy, www.Uwedal.uz, Aljidu@mail.ru, faks: 244-84-17, 244-84-18	• Aniq fanlar • Ijtimoiy-gumanitar • Xorijiy tillar
52	Toshkent Islom universiteti qoshidagi Shayxontohur akademik litseyi Shayxontohur tumani, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, www.islomai.usspo.uz, tial@nc.uz, 244-83-07, 244-41-81	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar
53	Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi 5-sonli akademik litseyi Shayxontohur tumani, Aeroplan tor ko'chasi, 49-uy, www.tdtu5.uz, tdtu-5litseyi@yandex.ru, 244-62-55, 244-62-42	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar
54	Tashkent arxitektura-qurilish instituti qoshidagi akademik litseyi Shayxontohur tumani, Alisher Navoiy ko'chasi, 13-uy, www.taqilitseyi.narod.ru, taqilitseyi@mail.ru, 241-13-51	• Aniq fanlar
55	O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi akademik litseyi Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 1-uy, www.conservatory.uz, litseyi.htmakademik_litsey@mail.ru, 244-82-23	• San'at yo'nalishi

1	2	3
YUNUSOBOD TUMANI		
56	Yunusobod radiotexnika kasb-hunar kolleji Yunusobod tumani, Murodov ko'chasi, 9-uy, www.trtkhk.siti.nettrtkhk@rambler.ru, 222-87-90	• Radioeshittirish, radioaloqa va televideniye vositalarini ishlatish va xizmat ko'rsatish texnigi • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik • Uzatish tizimlarini ishlatish va montaj qilish texnigi • Buxgalter
57	Toshkent turizm kasb-hunar kolleji Yunusobod tumani, A.Do-nish ko'chasi, 28 a-uy, www.ttkhk.lgusspo.uz, ttkhk@mail.ru, 224-79-52, 224-55-77, 224-87-29	• Turizm, mehmonxona va restoran biznesi tashkilotchisi • Mehmonxona xizmatlari menejeri • Buxgalter • Milliy va xorijiy taomlar oshpazi • Turistik xizmatlar menejeri
58	Yunusobod dizayn kasb-hunar kolleji Yunusobod tumani, Usta-Shirin ko'chasi, 98-uy, www.dizayn.uz, dizayn.frimail@.uz, 226-75-64	• Loyihalovchi-dizayner • Landshaftlar dizayneri • Milliy va xorijiy taomlar oshpazi • Sartaroshlik va dekorativ kosmetika ustasi • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori
59	X.Z.Kalanov nomli kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji Yunusobod tumani, Xasanboy mavzesi, Islomobod ko'chasi, 21 a-uy, www.kalanovo.uz, kalanovo@mail.ru, faks: 221-82-85, 221-33-44, 221-03-41, 221-36-60	• Kompyuter va kompyuter jihozlarini ishlatish va dasturiy ta'minoti bo'yicha texnik • Kompyuter grafikasi va multimediya tizimlari texnigi
60	Yunusobod mashinasozlik kasb-hunar kolleji Yunusobod tumani, 14-mavze www.umk.uz, umk@umk.uz, faks: 223-58-53, 212-92-24	• Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Metallarga ishlov berish mexanigi • Texnologik mashinalar va sanoat jihozlarini sozlash, xizmat ko'rsatish • Avtomobil elektr va elektron jihozlari diagnostikasi texnigi • Avtomatika vositalari va nazorat-o'lchov asboblari montaj qilish, ishlatish va xizmat ko'rsatish texnigi • Payvandlash jihozlari mexanigi • Maishiy xizmat mashinalarini ta'mirlovchi

1	2	3
		• Buxgalter • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik • Moliyachi
61	Toshkent iqtisodiyot kasb-hunar kolleji Yunusobod tumani, 19-mavze 37-uy, www.lik.cc. uz, iqtisodiyot@inbox. uz, 220-03-68	• Bank ishi mutaxassisi • Moliyachi • Buxgalter
62	Toshkent kimyo-texnologiya instituti qoshidagi akademik litseyi Yunusobod tumani, 3-mavze, 7-uy, www.tctial.uspo. uz, litseyi_tcti@doda. uz, 221-61-33	• Tabiiy fanlar • Aniq fanlar • Xorijiy tillar
63	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi Yunusobod tumani, Markaz-5, 88-uy www.yuxtal.zn. uz, yuxtal@mail.ru, 237-65-43	• Xorijiy tillar
64	Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi Yunusobod tumani, 2-tor Nosirov ko'chasi, 4-uy, www.timi.cc. uz, free_studio@mail.ru, faks: 235-87-54	• Aniq fanlar • Tabiiy fanlar • Ijtimoiy-gumanitar fanlar
65	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 123-uy, www.ToshpPTI-al. uz, ToshPPTI-alGinbox. uz, 260-28-16	• Tabiiy fanlar

1	2	3
66	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi 2-son akademik litseyi Yunusobod tumani, Bog'i-shamol ko'chasi, 112-uy, www.tatu2al.uz, tatu2al@mail.ru, 235-03-69, 234-50-46	• Aniq fanlar
67	Toshkent moliya instituti qoshidagi moliya akademik litseyi Yunusobod tumani, Zarbuloq ko'chasi, 14-uy, www.MOLIYAUSSPO.uz, Moliya-al@mail.ru, 289-81-11, 289-10-66	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar
YAKKASAROY TUMANI		
68	Yakkasaroy yengil sanoat kasb-hunar kolleji Yakkasaroy tumani, Askiya ko'chasi, 27-uy, www.Yeskhk.uz, Yeskhk88@mail.ru, 255-42-59	• Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Tikuv va tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish texnologiyasi • Moliyachi • Buxgalter
69	Toshkent Mehr-shafqat kasb-hunar kolleji Yakkasaroy tumani, V.Voxidov ko'chasi, 116-uy, www.Mehr-Shafqat-khk.USSTO.uz, Mehr-Shafqat77@mail.ru, 254-05-89	• Tibbiyot hamshirasi • Maktabgacha, oilaviy va maxsus ta'lim tarbiyachisi
70	Yakkasaroy maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 8-uy, www.ymxkk.usspo.uz, ymxkk@mail.ru, ymxkk@doda.uz, rekonstrksiya	• Milliy va xorijiy taomlar oshpazi • Buxgalter • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Elektrstansiyalar, elektr jihozlar va elektr qurilmalarini montaj qilish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnik-elektrigi

1	2	3
71	Toshkent tijorat va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji Yakkasaroy tumani, Usmon Nosir ko'chasi, 105-uy, www.tttkhk.uz, info@tttkhk.uz, 250-06-96	• Buxgalter • Bank ishi mutaxassisi • Savdo agenti • Moliyachi • Menejer • Soliq inspektori
72	Toshkent estrada sirk kasb-hunar kolleji Yakkasaroy tumani, U.Nosir ko'chasi, 68-uy, www.CIRCUScollege.uz, CIRCUScollage@mail.ru, 253-62-21	• Estrada xonandasi • Sirk artisti (jismoniy akrobatika) • Estrada cholg'ulari ijrochisi • Drama teatri aktyori • Estrada raqsi ijrochisi
73	Toshkent xoreografiya kasb-hunar kolleji Yakkasaroy tumani, Yusuf Hos Xojib ko'chasi, 31-uy, www.mrom.uz, ldmrxom@uzsci.net 256-24-36	• Klassik raqs ijrochisi • Xalq raqsi ijrochisi
74	Toshkent to'qima-chilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litseyi Yakkasaroy tumani, Shoh-jaxon ko'chasi, 5/4-uy www.ttyesial.tgusspo.uz, free_cc@mail.ru, 253-64-19	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar • Ijtimoiy-gumanitar fanlar • Tabiiy fanlar
75	Toshkent to'qima-chilik va yengil sanoat instituti qoshidagi 2-son akademik litseyi Yakkasaroy tumani, Miroqilov ko'chasi, 68-uy, www.AL2TTYESI.uz, TTYESI-71.AL@uz faks: 256-52-66	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar

1	2	3
76	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 2-sonli akademik litseyi Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 55-uy, www.litseyi2.uz, info@litseyi2.uz, 252-77-52	• Xorijiy tillar • Ijtimoiy-gumanitar fanlar • Aniq fanlar
77	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi 3-son akademik litseyi Yakkasaroy tumani, S.Miraxmedov ko'chasi, 62-uy, www.uz, dju3litseyi.uz, Uzdju3@litseyi.uz, 253-94-46	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar
SERGELI TUMANI		
78	Sergeli politehnika kasb-hunar kolleji Sergeli tumani, Sputnik-4, Prikarpat ko'chasi, 44-uy, www.spkhk.tgusspo.uz, spkhk@inbox.uz, faks: 258-46-35 tel.: 257-71-73, 257 71 76, 258 46 22,	• Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi va mebel ishlab chiqarish ustasi • Duradgorlik va pol yotqizish ishlari ustasi • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Moliyachi • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik • Buxgalter • Transportlarda tashish va boshqarishni tashkil etish (avtomobil transporti) texnigi • Menejer • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori
79	Toshkent moliya-iqtisod kasb-hunar kolleji Sergeli-3, 49-uy, www.tmikhk.narod.ru, tfek@mail.ru, 257-26-74	• Moliyachi • Buxgalter • Soliq inspektori • Bank ishi mutaxassisi
80	Qo'yliq maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji Sergeli tumani, Qo'yliq -5 mavze Yangi Qo'yliq ko'chasi, 50-uy,	• Non, makaron va qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish uskunalarini sozlash mexanigi • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Savdo agenti • Bank ishi mutaxassisi • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik

1	2	3
	www.KPKSU@mail.ru, Beg58@rambler.ru, 290-19-71	• Moliyachi • Sartaroshlik va dekorativ kosmetika ustasi • Milliy va xorijiy taomlar oshpazi
81	Sergeli sanoat kasb-hunar kolleji Sergeli tumani, Sergeli 2-mavzesi, 64 a-uy www.sskhk.tgusspo. uz, SSKHK@mail.ru, 257-74-16	• Radioelektron apparaturalarni montaj qilish, sozlash va ta'mirlash texnigi • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik • Elektrstansiyalar, elektr jihozlar va elektr qurilmalarini montaj qilish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnik-elektrigi • Buxgalter • Milliy va xorijiy taomlar oshpazi
82	Toshkent turizm va biznes kasb-hunar kolleji Sergeli tumani, Do'stlik mavzesi, 4-bino www.tpkbt. uz, inpo@tpkbt. uz, 257-77-77	• Mehmonxona xizmatlari menejeri • Turizm, mehmonxona va restoran biznesi tashkilotchisi • Buxgalter • Sartaroshlik va dekorativ kosmetika ustasi • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik • Xo'jalik masalalari huquqshunosi
83	Sergeli tibbiyot kasb-hunar kolleji Sergeli tumani, Qo'yliq-5 dahasi A.Shermatov ko'chasi, 5 A-uy, www.stk.tgusspo. uz, Sergelitibbiyot@mail.ru, 293-91-12	• Tibbiyot hamshirasi • Davolash ishi feldsheri • Tibbiy profilaktika ishi feldsheri • Ortopedik stomatologiya texnigi
84	Sergeli yengil sanoat va servis kasb-hunar kolleji Sergeli-1, Lutfiqor ko'chasi, 33-uy, www.monas. uz, sesskasb-hunar kolleji@uzsi.net, 258-05-68	• Transportlarda tashish va boshqarishni tashkil etish (avtomobil transporti) texnigi • Buxgalter • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik
85	Toshkent davlat yuridik instituti qoshidagi akademik litseyi Sergeli tumani, 7-mavze, 39a-uy, www.tdyuiqal.zn. uz, tqyuiqal@mail. uz, faks: 215-12-79 tel.: 215-12-74; 215-12-04; 215-12-91; 215-12-84	• Ijtimoiy-gumanitar fanlar

1	2	3
OLMAZOR TUMANI		
86	Olmazor qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji Olmazor tumani, Umid ko'chasi, 16-uy, www.tqmhk.ziyokor.uz, tqmhk@mail.ru, 227-14-08	• Zargarlik buyumlari usta -rassomi • Badiiy milliy liboslarni loyihalovchi-dizayner • Buxgalter • Duradgorlik va pol yotqizish ishlari ustasi • Suv, gaz ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini o'rnatish, ta'mirlash va ishlatish ustasi • Qurilish pardoqlash ishlari ustasi • Naqqoshlik bo'yicha usta-rassom • Yog'och o'ymakorlik bo'yicha usta-rassom • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik
87	Toshkent xizmat ko'rsatish va servis kasb-hunar kolleji Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, 75-uy, www.tskxk.usspo.uz, tskxk@doda.uz, faks: 246-04-00	• Sartaroshlik va dekorativ kosmetika ustasi • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Milliy va xorijiy taomlar oshpazi • Buxgalter
88	Olmazor yengil sanoat kasb-hunar kolleji Olmazor tumani, Olmazor ko'chasi, 313-uy, www.YSK.Credoprint.uz, S.R.Yengilsanoat@mail.ru, 240-54-49	• Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Tikuv va tikuv-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish texnologii • Buxgalter
89	Olmazor politexnika kasb-hunar kolleji Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 1-uy, www.srpoltex.uz, srpolitex@mail.uz, 246-74-16	• Geologiya qidiruv ishlari texnigi • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Geologiya qidiruv quduqlarini burg'ulovchi texnik • Buxgalter • Neft va gazni tashish va saqlash qurilmalari texnik-mexanik • Moliyachi
90	Toshkent bank kasb-hunar kolleji Olmazor tumani, Moyqo'rg'on mavzesi, S.Eshonto'rayeva ko'chasi, 75-uy www.tbk.uz, info@tbk.uz, 228-76-99, 227-88-56	• Bank ishi mutaxassisi • Buxgalter • Moliyachi • Sug'urta agenti

1	2	3
91	Toshkent madaniyat kasb-hunar kolleji Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 1-uy, www.tmk.ziyokor.uz, tmk@ziyokor.uz, 246-04-40	• Madaniy-ma'rifiy faoliyat tashkilotchisi • Madaniy ma'rifiy tadbirlarni badiiy bezovchisi • Havaskorlik teatr jamoasi rahbari • Folklor etnografik jamoalari rahbari • Xalq cholg'u ansambli (orkestri) rahbari • Havaskorlik raqs jamoasi rahbari • An'anaviy havaskorlik ansambllari rahbari • Axborot-resurs markazi mutaxassisi • Televideooperator • Ommaviy bayramlar va teatrlashtirilgan tomoshalar rejissori
92	M.S.Tursunxodjayeva nomli tibbiyot kasb-hunar kolleji 100178, Olmazor tumani, Qora-qamish 2/5, O'razbayeva ko'chasi, 17 a-uy, www.TK.M.S.Tursunxo'jayeva.uz, Tursunxod-T.K@mail.ru, 229-72-14	• Tibbiyot hamshirasi • Ortopedik stomatologiya texnigi • Davolash ishi feldsheri
93	Olmazor tibbiyot kasb-hunar kolleji Olmazor tumani, Shifokorlar shaharchasi, G'.Karimov ko'chasi, 12-uy, www.srtibbiyot.uz, E-mail@srtkol.ru, 214-37-60, 214-38-90	• Tibbiyot hamshirasi • Farmatsevt assistenti • Tibbiy laborant
94	Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Olmazor akademik litseyi Olmazor tumani, O.Bobojonov ko'chasi, 20-uy, www.sharqshunos.uz, sharqshunos@mail.uz, 248-41-42; 228-09-33	• Xorijiy tillar • Aniq fanlar
95	Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi kompyuter texnologiyalari akademik litseyi	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar

1	2	3
	Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy, www./komtex.uz, /litseyi_akt@mail.ru, faks: 227-18-61; 227-15-18; 246-60-34	
96	O'zbekiston Milliy universiteti qoshi-dagi Olmazor akademik litseyi Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, 174-uy, www.sral.tguspo.uz, litseyi.nuuz2@mail.ru, faks: 246-23-17, 246-08-84	• Aniq fanlar • Xorijiy tillar • Tabiiy fanlar • Ijtimoiy-gumanitar fanlar
97	Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshi-dagi akademik litseyi Olmazor tumani, Shifokorlar ko'chasi, 3-uy, www.akad-litseyi.sitycity.ru, akad-litseyi@uzsci.net 214-53-93, 214-53-93	• Tabiiy fanlar
98	Gliyer nomli akademik litseyi Olmazor tumani, Ziyov ko'chasi, 4-uy, www.glier.cc.uz, GLIERA@mail.ru, 246-87-61	• San'at yo'nalishi
99	Toshkent moliya instituti qoshidagi 2-son akademik litseyi Olmazor tumani, Saidov ko'chasi, 3-uy, www.2al.tfi.uz, taxliceym@bk.ru, 246-08-40	• Aniq fanlar • Ijtimoiy-gumanitar fanlar
100	Turin politexnika universiteti qoshi-dagi akademik litseyi	• Aniq fanlar

1	2	3
XAMZA TUMANI		
101	Toshkent aviasozlik kasb-hunar kolleji Xamza tumani, Parkent ko'chasi, 331-uy, www.aviakollej.uz, info@aviakollej.uz, tashaviakollej@mail.ru, 296-58-20; 296-47-70	• Havo kemalari va aviadvigatellarini texnik ishlatish bo'yicha aviatsiya texnigi • Havo kemalarining aviaasboblari, radio va elektr jihozlaridan texnik foydalanish bo'yicha aviatsiya texnigi • Uchish apparatlari va aviadvigatellarni ta'mirlash bo'yicha mexanik • Aviatsiya texnikasini yig'ish bo'yicha mexanik • Metallarga ishlov berish mexanigi • Payvandlash jihozlari mexanigi • Kompyuter va kompyuter jihozlarini ishlatish va dasturiy ta'minoti bo'yicha texnik • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Buxgalter • Menejer
102	Xamza qurilish kasb-hunar kolleji Xamza tumani, Slonim ko'chasi, 113-uy, www.hqkhk.tguspo.uz, hamzaqurilish@mail.ru, 294-08-94	• Qurilish pardoqlash ishlari ustasi • Duradgorlik va pol yotqizish ishlari ustasi • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Arxivshunoslik va ish yuritish mutaxassisi • Buxgalter • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Suv, gaz ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini o'rnatish, ta'mirlash va ishlatish ustasi
103	Xamza temir yo'l kasb-hunar kolleji Xamza tumani, Slonim ko'chasi, 113-uy, www.hamza temir yo'l khk.uz, hty_khk@doda.uz, 294-38-55	• Temir yo'l transporti vositalaridan foydalanish va ta'mirlash mexanigi • Metallarga ishlov berish mexanigi • Temir yo'l transportida vagonlar, sovutish jihozlaridan foydalanish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish elektrmexanigi • Temir yo'l vagonlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash mexanigi • Temir yo'l stansiyalaridan foydalanish va xizmat ko'rsatish texnigi • Buxgalter • Payvandlash jihozlari mexanigi • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik
104	Xamza kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji Xamza tumani, Oq daryo 122-uy,	• Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik • Kompyuter grafikasi va multimediya tizimlari texnigi • Axborot va kommunikatsion texnologiyalari tizimini ishlatish texnigi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASINING
Q A R O R I**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA QABUL QILISH, TALABALAR
O'QISHINI KO'CHIRISH, QAYTA TIKLASH VA O'QISHDAN
CHETLASHTIRISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMLARNI
TASDIQLASH HAQIDA**

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalar hamda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, shuningdek talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

Quyidagilar:

1. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;
Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq (2-ilova matnda berilmaydi);
Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin (3-ilova matnda berilmaydi).
2. Vazirliklar va idoralar bir oy muddatda o'z normativ-huquqiy hujjatlari ushbu qarorga muvofiqlashtirilishini ta'minlasinlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» 1999-yil 12-iyuldagi 342-son qarori 1-bandining ikkinchi va uchinchi xatboshi hamda mazkur qarorga 1 va 2-ilovalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining
Bosh vaziri**

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2010-yil 18-iyun,
118-son

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING BAKALAVRIATIGA TALABALARNI QABUL QILISH TARTIBI TO'G'RIDA NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom harbiy ta'lim muassasalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Oliy ta'lim muassasalari qabulni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosida qabul kvotalariga muvofiq amalga oshiradilar.

3. Oliy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat komissiyasi deb yuritiladi) tomonidan test sinovlari natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar.

Tanlov har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, o'qitish tillari va shakllariga ko'ra alohida o'tkaziladi.

Test sinovlari, shuningdek ularni o'tkazish tartibini belgilash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda oliy ta'lim muassasalari rektorlari joylarda test sinovlarini o'tkazish uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydilar.

1	2	3
	www.xktkhk.edu. uz, xktkhk@mail.ru, 299-85-47	• Buxgalter • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik
105	Toshkent mehmon-xona xo'jaligi kasb-hunar kolleji Xamza tumani, 2-muyulish Musaxonov ko'chasi, 15-uy, www.POVAR.93w.ru, colleje_2009@mail.ru, 289-40-30	• Milliy va xorijiy taomlar oshpazi • Savdo agenti • Buxgalter • Turizm, mehmonxona va restoran biznesi tashkilotchisi
106	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi 2-sonli akademik litseyi Xamza tumani, Sultonali Mashxadiy ko'chasi, 217-uy, www.2altpmi. uz, 2-acadlitseyitpmi@mail.ru, 269-39-90	• Tabiiy fanlar
107	Toshkent ixtisoslash-tirilgan xotin-qizlar kasb-hunar kolleji Xamza tumani, Temirchi ko'chasi, 53-uy, www.iqtidorqiz.tgusspo. uz, iqtidorqiz@inbox. uz, 296-69-12	• Ijtimoiy muhofaza huquqshunosi • Boshlang'ich ta'lim tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Tibbiy-ijtimoiy ish tashkilotchisi • Buxgalter
108	Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi akademik litseyi Xamza tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 101-uy, www.tdpu. uz, litseyiNntdpu-1@mail.ru, 295-89-52	• Tabiiy fanlar • Aniq fanlar • Ijtimoiy-gumanitar fanlar • Xorijiy tillar

1	2	3
UCHTEPA TUMANI		
109	Toshkent qurilish-kommunal kasb-hunar kolleji Uchtepa tumani, Ko'kcha oqlepa mahallasi, M.Uyg'ur ko'chasi, 485-uy, www.uz, const.ru, ction. ucoz.ru, const.ru, ction. uz, @mail.ru, 247-79-32	• Qurilish pardoqlash ishlari ustasi • Turar joy va jamoat binolaridan foydalanish va davlat ro'yxatidan o'tkazish inspektori • Bino va inshootlar bo'yicha texnik-arxitektor • Suv, gaz ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini o'rnatish, ta'mirlash va ishlatish ustasi • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Moliyachi • Buxgalter • Duradgorlik va pol yotqizish ishlari ustasi
110	Toshkent yuridik kasb-hunar kolleji Uchtepa tumani, Chilonzor 12 daxasi, 67 a-uy, www.tyuk.uz, info@tyuk.uz, 271-42-35	• Xo'jalik masalalari huquqshunosi • Sud ijrochisi • Huquqshunos • Ma'muriy faoliyat huquqshunosi
111	Toshkent iqtisodiyot va servis kasb-hunar kolleji Uchtepa tumani, O'rikzor daxasi, Xalqa yo'li, 9-uy, www.tashces.uz, tashces@doda.uz, 247-51-56	• Qishloq xo'jaligi mashina va jihozlariga xizmat ko'rsatish mexanigi • Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish, metrologiyasi va sertifikatlashtirish texnigi • Kadastr ishi inspektori • Buxgalter • Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik mexanik • Moliyachi • Bank ishi mutaxassisi • Xo'jalik masalalari huquqshunosi • Veterinar
112	Uchtepa milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji Uchtepa tumani, Chilonzor-11, M.Shayx-zoda ko'chasi, 61 a-uy, www.hunarmand.uz, hunarmand2009@mail.ru, faks: 217-29-48	• Zargarlik buyumlari usta-rassomi • Keng assortimentdagi kiyimlar modelyer-konstruktori • Badiiy milliy liboslarni loyihalovchi-dizayner • Yog'och o'ymakorlik bo'yicha usta-rassom • Buxgalter
113	A.A.Xo'jayev nomli dizayn kasb-hunar kolleji Uchtepa tumani, 26-mavze 1 A-uy,	• Loyihalovchi-dizayner • Badiiy milliy liboslarni loyihalovchi-dizayner • Ganch bo'yicha usta-rassom • Naqqoshlik bo'yicha usta-rassom • Yog'och o'ymakorlik bo'yicha usta-rassom

1	2	3
	www.RDK. uz, rdk@mail. uz, rdk05@mail.ru, 272-88-13	• Reklama va dizayn bo'yicha mutaxassis • Interyer va jihozlar dizayneri • Badiiy kompyuter grafika dizayneri • Kashtachilik bo'yicha usta • Kulolchilik ustasi • Zargarlik buyumlari usta -rassomi • Badiiy gilam va gobelenlarni ishlab chiqarish usta-rassomi • Mebellarni loyihalovchi dizayneri • Zardo'zlik bo'yicha usta
114	Toshkent soliq kasb-hunar kolleji Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li, 3-uy www.Toshkent soliq. Tgusspo. uz, Toshkent soliq@tgusspo. uz, 274-74-59; 275-38-86	• Soliq inspektori
115	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi Uchtepa akademik litseyi Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, Chilonzor-11, 64-uy, www.O'zDJTUAL1. uz, O'zDJTUAL1@mail.ru, 276-86-78; 276-86-37	• Xorijiy tillar
116	Toshkent avtomobil yo'llari instituti qoshidagi Uchtepa akademik litseyi Uchtepa tumani, Chilonzor 30-mavzesi, www.tayilitsейi. uz, tayi litseyi@rambler.ru, tayi litseyi@doda. uz, 270-67-20	• Aniq fanlar • Ijtimoiy-gumanitar fanlar • Xorijiy tillar
117	Toshkent bank hisob-kredit kasb-hunar kolleji Toshkent viloyati, Zangiota tumani, U.Yusupov ko'chasi, 1-uy, www.tbkhk. uz, tbkhk@mail.ru, 270-56-31	• Bank ishi mutaxassisi • Qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisi • Buxgalter • Sug'urta agenti

1	2	3
BEKTEMIR TUMANI		
119	Toshkent televideniye va radio kasb-hunar kolleji Bektemir tumani, Rohat ko'chasi, 29-uy, www.RTRK.mtrk. uz, RTRKkollej@mtrk. uz, 295-67-42	• Televideooperator • Maxsus yoritish mexanigi • Ovoz yozish texnik-texnologii • Radioeshittirish, radioaloqa va televideniye vositalarini ishlatish va xizmat ko'rsatish texnigi • Videomontaj texnigi • Buxgalter • Kompyuter va kompyuter tarmoqlarini ta'mirlash va sozlash bo'yicha texnik

ASOSIY QISQARTMALAR

- QFY – Qishloq fuqarolar yig'ini
- MFY – Mahalla fuqarolar yig'ini
- ShX – Shirkat xo'jaligi
- DFXU – Dehqon-fermer xo'jaligi uyushmasi
- FXU – Fermer xo'jaligi uyushmasi
- FU – Fermerlar uyushmasi
- SFU – Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi

BITIRUVCHILAR VA ABITURIYENTLARGA YANA BIR BOR

Bitiruvchilar va abituriyentlarga yana bir muhim axborotni bildirib o'tmoqchimiz. Mazkur axborotnomada siz tanlamoqchi bo'layotgan ta'lim muassasasi haqida axborot berilgan bo'lib, ta'lim muassasasi siz tanlagan kasbni yoki mutaxassislikni egallashingiz uchun zarurdir. Demak, avvalambor, siz ma'lum bir kasbni tanlashingiz kerak ekan! Xo'sh, kasb qanday tanlanadi? Buning uchun qanday amallarni qanday ketma-ketlikda bajarish zarur? Bu va boshqa savollarga javob topish uchun **«Kasb qanday tanlanadi»** nomli kitobidan foydalaning. Ushbu kitob ham mazkur Axborotnoma tuzuvchilari tomonidan yaratilgan bo'lib, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va oqibatda, ularning mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishda katta yordam beradi.

QAYDLAR UCHUN

QAYERDA O'QISAM EKAN

Ma'lumotnoma

**AKADEMIK LITSEY, KASB-HUNAR KOLLEJI
VA MAKTAB BITIRUVCHILARI UCHUN
AXBOROTNOMA**

TOSHKENT SHAHRI

Muharrir U. Rajabova
Texnik muharrir A. Solihov
Musahhih N. Minovarova
Kompyuterda sahifalovchi E. Kim

Nashr. lits. № AI 140. 27.04.09. Bosishga ruxsat etildi: 10.02.2011. Qog'oz bichimi 60×84¹/₁₆.
Shartli b.t. 5,11. Nashriyot-hisob tabog'i, 6,15.
Ofset usulida chop etildi. 44-buyurtma. 5000 nusxada (1-zavod 3000 nusxa).
Bahosi kelishilgan narxda.

«Vektor-Press» nashriyoti, 100000, Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.
Tel.: 405-44-55, 338-04-72; e-mail: vektor-press@mail.ru

«Niso Poligraf» ShK bosmaxonasida bosildi. Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41-uy.

4. Test sinovlari uch tilda – o'zbek, rus, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi oliy ta'lim muassasalarida qoraqalpoq tillarida o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish tili, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan qabul kvotalari doirasida hujjatlar qabul qilinishiga qadar vazirliklar va idoralar tomonidan belgilanadi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Abituriyent test sinovlarini oliy ta'lim muassasasida o'qiydigan tilda topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlari ro'yxati va test bo'yicha ularga muvofiq keluvchi fanlar majmuasi Davlat test markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Abituriyent chet tillar sifatida ingliz, nemis, fransuz tillaridan biri bo'yicha test sinovi topshiradi. Abituriyent o'qigan chet tilidan qat'i nazar, xohlagan (ingliz, nemis, fransuz) chet tilidan test topshirishi mumkin.

Agar umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasida ingliz, nemis yoki fransuz tillari o'tilmasdan boshqa chet tillari o'qitilgan holda, shu chet tilidan test sinovi o'rniga ko'p balli tizim bo'yicha imtihon topshiriladi.

Oliy ta'limning ayrim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari bilan bir qatorda qo'shimcha kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati Davlat test markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Ayrim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan ta'lim yo'nalishlariga qabul ko'p balli tizim bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar va test sinovlari asosida amalga oshiriladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati Davlat test markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu ta'lim yo'nalishlariga arizalar umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasini faqat ko'rsatilgan tillarda tugatgan abituriyentlardan qabul qilinadi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar, ko'p balli imtihon baholari va Davlat komissiyasi tasdiqlagan test sinovlari natijalarining umumiy yig'indisi shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanadi.

6. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ispan, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur tilini chet tili sifatida o'qigan abituriyentlar mazkur tildan ko'p balli baho tizimi bo'yicha imtihon topshiradilar, qolgan fanlar bo'yicha esa test sinovlaridan o'tadilar.

Mazkur qoida roman-german filologiyasi (ingliz, nemis va fransuz filologiyasi) yo'nalishi bo'yicha o'qishga kiradigan abituriyentlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Ushbu fanlar bo'yicha yagona dastur va baholash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va oliy ta'lim muassasalariga yetkaziladi.

7. Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy (ijodiy) va ko'p balli imtihonlarni o'tkazish 1 va 2-ilovalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8. Oliy ta'lim muassasalariga ko'zi ojiz abituriyentlarni qabul qilish 3-ilovada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9. Respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan 3 yillik «Oliy hamshiralik ishi» ta'lim yo'nalishiga qabul faqat o'rta maxsus, kasb-hunar tibbiy ma'lumot (hamshiralik, akusherlik ishi va feldsherlik) negizida amalga oshiriladi. Mazkur yo'nalish bo'yicha test sinovlari bilan bir qatorda qo'shimcha kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladi.

10. Oliy ta'lim muassasalari tarkibida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limning ta'lim yo'nalishlariga qabul faqat tegishli yoki turdosh ta'lim yo'nalishiga muvofiq o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga hamda kamida uch yil amaliy ish stajiga ega bo'lgan, ishlab turgan sohadan tavsiyanoma berilgan kadrlar hisobidan amalga oshiriladi.

II. Xorijiy fuqarolarni qabul qilish

11. Oliy ta'lim muassasalariga xorijiy fuqarolarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish va o'qitish tartibini takomillashtirish to'g'risida» 2008-yil 4-avgustdagi 169-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Respublika fuqarolarini xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga jo'natish davlatlararo shartnomalar va Davlat komissiyasining tegishli qaroriga, oliy ta'lim muassasalararo shartnomalarga hamda fuqarolarning tashabbusiga asosan amalga oshiriladi.

III. Hujjatlarni qabul qilish

12. Oliy ta'lim muassasalarida o'qishga qabulni sifatli tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan tartibda qabul komissiyalari tashkil etiladi.

Abituriyentlarning o'qishga qabul qilish haqidagi arizalari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan 20-iyundan 20-iyulgacha (shu kuni ham), O'zbekiston davlat konservatoriyasi uchun 20-iyundan 15-iyulgacha qabul qilinadi.

Abituriyent oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

ta'lim yo'nalishi, o'quv tili va shakli ko'rsatilgan holdagi ariza (arizada oliy ta'lim muassasasini tugatganligi yoki oliy ma'lumoti yo'qligi, chet tilidan qaysi fandan test topshirishi, harbiy tavsiyanomaga ega bo'lganlar uning raqamini ko'rsatishlari hamda test sinovlarini o'tkazish qoidalari va javoblar varaqalarini to'g'ri to'ldirish bilan tanishganligi ko'rsatiladi);

o'rta ta'lim (11-sinf negizida) yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjatning asl nusxasi;

086-U – shakl bo'yicha tibbiy ma'lumotnoma;

pasport (pasport yoshiga yetmaganlar uchun tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma)ning nusxasi;

3,5×4,5 sm hajmdagi 6 dona rangli fotosurat;

mehnat daftarchasidan belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma va ishlab turgan sohadan tavsiyanoma (maxsus sirtqi bo'lim abituriyentlari uchun).

Ariza shakli Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Tanlovdan tashqari o'qishga kirish huquqiga ega bo'lgan xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlar va musobaqalar g'oliblari asl nusxadagi tasdiqlovchi hujjatlarni topshiradilar.

Abituriyent arizasida «o'zim haqimda quyidagilarni ma'lum qilaman» grafasiga hujjatlar bilan tasdiqlovchi holatlar (bolalikdan I va II guruh nogironlari, chin yetim va yetim, «Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilari va boquvchisi yo'q) qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolar harbiy qism qo'mondonligining tegishli tavsiyanomasining aslini yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar bilan birgalikda taqdim etadilar.

Harbiy qism tavsiyanomasining shakli va uni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati tomonidan belgilanadi.

Abituriyent tomonidan pasport (pasport yoshiga yetmaganlar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma) hamda harbiy xizmatga aloqadorligi haqidagi hujjat qabul komissiyasiga shaxsan ko'rsatiladi.

Harbiy qismlar qo'mondonligi tavsiyanomalari ular berilgan kundan hamda muddatli harbiy xizmatni tugatgan davridan boshlab uch yil mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lganda oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi abituriyentning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Hujjatlar qabul qilishning belgilangan muddatlari tugagandan so'ng hujjatlarga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish qat'iyan man qilinadi.

Abituriyent tomonidan topshirilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlansa, u holda abituriyent test sinovlaridan (oliy ta'lim muassasasidan) chetlashtiriladi hamda hujjatlari o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga yuboriladi.

Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari 21-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi orqali Davlat komissiyasiga ta'lim yo'nalishi, o'quv shakli va tili ko'rsatilgan holda, abituriyentlarning soni haqida belgilangan shakldagi ma'lumotni imtiyozga ega bo'lganlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qo'shib taqdim etadilar.

IV. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar

13. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar test sinovlari o'tkazilishiga qadar 11-iyuldan 25-iyulgacha, test majmualarida fanning o'rniga qarab uning uchun nazarda tutilgan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizigacha bo'lgan oraliqda yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari bo'yicha tushgan norozilik (apellyatsiya) arizalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan 26-iyulga qadar bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari Davlat komissiyasiga oliy ta'lim muassasalari tomonidan 27-iyulgacha taqdim etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalari haqidagi ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan Davlat test markaziga belgilangan shakllarda kunduzgi va maxsus sirtqi bo'limlar uchun – 1-avgustda taqdim etiladi.

V. Test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish

14. Test sinovlari kunduzgi va maxsus sirtqi bo'limlar uchun 1-avgustda o'tkaziladi.

15. Oliy ta'lim muassasasida tanlangan ta'lim yo'nalishiga qarab abituriyentlar tegishli ravishda ikki yoki uch fan majmualari bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

«Jurnalistika», «Xalqaro jurnalistika» va «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari bilan bir qatorda (0 bilan 75,6 ballgacha bo'lgan oraliqda baholanuvchi) ijodiy imtihonlar o'tkaziladi.

Test topshiriqlari o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga muvofiq tuziladi.

16. Majmuaning har bir fani 36 topshiriqni o'z ichiga oladi.

Quyidagi vaqt me'yorlari belgilanadi:

a) 72 savolga – 2 soat;

b) 108 savolga – 3 soat.

Majmualar quyidagi fanlar bo'yicha shakllanadi:

1. Ona tili va adabiyoti: o'zbek tili va adabiyoti.

2. Ona tili va adabiyoti; rus tili va adabiyoti.

3. Ona tili va adabiyoti: qoraqalpoq tili va adabiyoti.

4. Matematika.

5. Fizika.

6. Kimyo.

7. Biologiya.

8. Tarix.

9. Geografiya.

10. Chet tili: ingliz tili.

11. Chet tili: nemis tili.

12. Chet tili: fransuz tili.

Test sinovlari boshlanishiga qadar 30 daqiqagacha abituriyentlar javoblar varaqasini to'g'ri to'ldirish tartibi bilan tanishadilar va uning tegishli joyiga o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yozadilar. Bu vaqt test o'tkazish uchun ajratilgan vaqt me'yoriga kirmaydi.

Test sinovlarini tashkil etish va ularni joylarda adolatli o'tkazish mas'uliyati, test sinovlari qoidalariga qat'iy rioya etgan holda Davlat test markazi vakillari, oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari raislari, hokimliklar va ular tomonidan tayinlanadigan auditoriyalarning rahbarlariga yuklanadi.

Test sinovi sinov o'tadigan xonada sinovni o'tkazish qoidalari talablariga qat'iy rioya etilgan tarzda to'g'ri va adolatli o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha shaxsiy mas'uliyat auditoriya rahbari va kuzatuvchisi zimmasiga yuklanadi.

Test sinovi ertalab soat 8 dan 30 daqiqa o'tganda boshlanadi.

Javoblar varaqasi abituriyent tomonidan havo rang pastasi bo'lgan sharikli ruchka bilan to'ldiriladi.

Javoblar varaqasini to'ldirishga test sinovi uchun belgilangan vaqt me'yoriga qo'shimcha 20 daqiqa ajratiladi.

Javoblar varaqasi to'g'ri to'ldirilishi uchun abituriyent shaxsan javobgardir. Javoblar varaqasidagi tegishli doirachalarni noto'g'ri belgilagan abituriyentlarning e'tirozi ko'rib chiqilmaydi.

Abituriyent tomonidan uyali telefonlar va boshqa aloqa vositalarini olib kirish va foydalanish qat'iy man etiladi.

Test sinovlariga abituriyent mikrokalkulyator, lug'at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirgan bo'lsa, test jarayoni davomida test materiallarini boshqa abituriyentga uzatsa, abituriyentlarga yordam bersa, abituriyent test sinovlarini o'tkazish tartibini buzgan hisoblanadi va dalolatnoma tuzilib, u test sinovidan chetlashtiriladi.

Test sinovi jarayonida abituriyent tomonidan savollar kitobi varag'i yirtib olinganligi aniqlansa, test sinovlarini topshirish qoidalari buzilgan hisoblanadi va test sinovidan chetlashtiriladi.

Belgilangan vaqtda test sinovlariga kelmagan abituriyentlar uchun qo'shimcha test sinovlari o'tkazilmaydi.

VI. Abituriyentlarni to'lov-kontrakt asosida qabul qilish, o'qish uchun to'lov tartibi va miqdori

17. Abituriyentlarni to'lov-kontrakt asosida qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan qabul kvotalari doirasida yagona qabul qoidalari asosida test sinovlarining ballar reytingi bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat komissiyasi tomonidan abituriyentlarni to'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin oliy ta'lim muassasasi bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida belgilangan tartibda kontraktlar rasmiylashtiriladi.

Belgilangan namunadagi kontrakt blankalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan test natijalari e'lon qilingan kundan

boshlab beriladi va yuridik shaxslar uchun rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolangan holda 3 nusxada, jismoniy shaxslar uchun 2 nusxada rasmiylashtiriladi.

Davlat komissiyasi tomonidan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar uchun to'lov har yili kontrakt shartlarida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Kontrakt shartlari va tomonlarning majburiyatlari, ularning amalga oshirilishi tartibi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari va musobaqalari g'oliblarini qabul qilish

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish choralari to'g'risida» 1993-yil 5-fevraldagi PF-555-son Farmoniga muvofiq hamda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida» 2008-yil 13-oktyabrdagi 226-son qarori bilan tasdiqlangan Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risidagi Nizom hamda Respublika olimpiadalari, tanlovlari va sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi Nizomlar asosida xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari va musobaqalari g'oliblari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi ta'sis etadigan maxsus guvohnomani olganlar Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta'lim muassasalarining mos ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida» 1999-yil 10-iyundagi PF-2326-son Farmoniga muvofiq Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari bo'lgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi va tegishli vazirliklar, idoralar tomonidan har yili o'tkaziladigan pedagogika o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilari va ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining «Tarbiyachi» respublika tanlovi g'olibi, tibbiyot

muassasalari hamshiralari «Hamshira» respublika tanlovi g'olibi, Badiiy akademiyaning tasviriy san'at bo'yicha respublika tanlovi g'oliblari, «Nihol» mukofoti sovrindorlari mazkur vazirliklar, idoralar va jamg'armalar taqdimnomalariga muvofiq Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta'lim muassasalariga, mos ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

Olimpiada fani, tanlovlar bilan oliy ta'lim yo'nalishlari o'rtasidagi kasbiy muvofiqlik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.


Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalar g'oliblarining arizalari haqidagi ma'lumotlarni, ta'lim yo'nalishi, o'quv shakli va tili ko'rsatilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi orqali Davlat komissiyasiga 22-iyulgacha bo'lgan muddatda taqdim etadilar. Davlat komissiyasi 31-iyulgacha g'olib bo'lganlar bo'yicha tegishli vazirliklar, idoralarning taqdimnomasi asosida alohida qaror qabul qiladi.

VIII. Muddatli harbiy xizmatni o'tagan abituriyentlarni qabul qilish

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2005-yil 31-oktyabrdagi PQ-213-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolar uchun respublika oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda test sinovlarida to'planadigan eng ko'p ballning 25 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyoz beriladi.

Mazkur qarorga binoan belgilangan imtiyoz harbiy qism qo'mondonligining tegishli tavsiyanomasiga ega shaxslarga beriladi va O'zbekiston Respublikasining istisnosiz barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'limning hamma yo'nalishlariga joriy etiladi.

Harbiy qism qo'mondonligi tavsiyanomasiga ega bo'lgan, biroq tanlov davomida (test sinovi) kerakli ball to'play olmagan muddatli harbiy xizmatni o'tagan abituriyentlar o'qishning pedagogika, qishloq xo'jaligi, tabiiy-ilmiy va texnik yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi.



Harbiy qism qo'mondonligining to'planishi mumkin bo'lgan ballar miqdorining 25 foizini qo'shish imtiyozini beriladigan tavsiyanomalar bilan hujjat topshirgan fuqarolar ro'yxatini Davlat test markazi 23-iyulda tasarrufida harbiy qismlar bo'lgan vazirliklar va idoralarga ikki kun muddatda tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tegishli tavsiyanomaga ega bo'lgan abituriyentlar haqidagi ma'lumotlarni ta'lim yo'nalishi, o'quv shakli va tili, javoblar varaqasi raqami ko'rsatilgan holda belgilangan shakllar bo'yicha Davlat test markazi orqali Davlat komissiyasiga kunduzgi va maxsus sirtqi bo'limlar uchun 1-avgustda taqdim etadilar.

IX. Qabul qilish tartibi

20. Davlat komissiyasining abituriyentlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish to'g'risidagi qarori 15-avgustdan kechikmay qabul qilinadi va u oliy ta'lim muassasalarida 20-avgustga qadar abituriyentlarni davlat grantlari bo'yicha talabalar safiga qabul qilish haqidagi buyruqlarni rasmiylashtirish uchun asos bo'ladi.

To'lov-kontrakt asosida abituriyentlarni o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun kontraktida belgilangan mablag' miqdori 15-sentyabrdan kechiktirilmay, belgilangan tartibda o'tkazilgandan so'ng, oliy ta'lim muassasasining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarni 2-sentyabrdan boshlab darslarga qatnashishga ruxsat etish to'g'risida oliy ta'lim muassasasining buyrug'i rasmiylashtiriladi.

X. Yakunlovchi qoidalar

21. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizomlar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA YAGONA KO'P
BALLI BAHOLASH TIZIMI BO'YICHA KASBIY (IJODIY)
IMTIHONLARNI O'TKAZISH
TARTIBI**

1. Oliy ta'lim muassasalarida yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar (keyingi o'rinlarda imtihonlar deb ataladi) test sinovlari boshlangunga qadar Davlat komissiyasi belgilagan muddatlarda o'tkaziladi.

2. Test sinovlariga qo'shimcha tarzda nazarda tutilgan kasbiy (ijodiy) imtihonlar Davlat komissiyasi tasdiqlagan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati bo'yicha o'tkaziladi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning bosh maqsadi abituriyentlarning tanlangan mutaxassislik bo'yicha o'qish va keyinchalik ishlab ketish imkoniyatlarini aniqlash, ularning tanlangan fanlar bo'yicha bilimlari va malakalari darajalarini, kasbiy ko'nikmalarini, ijodiy va jismoniy qobiliyatlarini baholashdir.

4. Imtihonlar savollari va topshiriqlarining mazmuni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari dasturlariga qat'iy muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Sport fanlari bo'yicha imtihonlar topshiriqlari abituriyentlarning alohida toifalari uchun (jinsi va yoshi bo'yicha) belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq tuziladi.

5. Abituriyentlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlar qabul qilish uchun oliy ta'lim muassasasida fan bo'yicha imtihon komissiyasi tashkil etiladi.

Oliy ta'lim muassasasida kasbiy (ijodiy) imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin rektorning buyrug'i bilan oliy ta'lim muassasasida tegishli fanlar bo'yicha imtihonlarni tashkil etish va qabul qilish masalalari bo'yicha tajribali, malakali va mas'uliyatli o'qituvchilar tarkibidan fan bo'yicha imtihon komissiyasi tashkil etiladi;

ayrim hollarda oliy ta'lim muassasasi fan bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibiga boshqa ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining asosiy ish joyi ma'muriyatining tavsiyalariga binoan kiritilishiga yo'l qo'yiladi;